

O‘ZBEK TARJIMASHUNOSLIGIDA MUSHTARAK BIRLIKLARNING TADQIQI

Isojonova Nigoraxon

Magistrant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Soxta ekvivalentlarning o‘zbek tarjimashunosligida o‘rganilishi arab va o‘zbek tillari misolida tahlil qilinib, tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Soxta ekvivalentlar, “yolg‘onchi so‘zlar”, “aldoqchi so‘zlar”, “tarjimonning soxta do‘stlari”, “tillararo omonimlar”, “tillararo analogizmlar”, “ohangdosh so‘zlar”, “aldoqchi so‘zlar”.

RESEARCH OF JOINT UNITS IN UZBEK TRANSLATION STUDIES

Annotation: The study of false equivalents in Uzbek translation has been analyzed and studied on the example of Arabic and Uzbek languages.

Keywords: False equivalents, "false words", "deceitful words", "false friends of the translator", "interlingual homonyms", "interlinguistic analogies", "synonymous words", "deceptive words".

Asosiy qism

O‘zbek tarjimashunosligi yillar va bosib o‘tilgan yo‘llar davomida muayyan tajribaga ega bo‘ldi. Dunyo tarjimashunosligida muayyan mavjud muammolar muvaffaqiyatli qilinadigan ilmiy-nazariy masalalar o‘zbek tarjimashunosligi maktablari uchun ham begona emas.

“Badiiy tarjima so‘z san‘ati bilan bog‘liq adabiy yaratuvchilik turli-tuman janrlari, turlari orasida eng sertashvish sohalaridan hisoblanadi”¹.

Tarjima jarayonini amalga oshirishda tarjimon bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin. “Tarjimaning faqat til bilan bog‘liq, til doirasida hal qilinadigan muammolari lisoniy, til qobiqlarini yorib o‘tgan, tildan tashqari muammolari g‘ayrilisoniy muammolar hisoblanadi”².

G‘.Salomovning yozishicha, “tarjima, shubhasiz, lisoniy faoliyatga asoslanadi, lekin sof til tafovutlarini bartaraf qilish tarjima jarayonida bosib o‘tiladigan bir bosqichdir, xolos. Tarjima ikki grammatika (grammatik sistema), tarixan tarkib topgan ikki uslubiy sistema, ikki tarixiy-adabiy an‘ana, ikki she‘riy sistema, ikki individual yozuvchi – muallif va tarjimonning qiyos qilinishi yoxud to‘qnashuvini taqozo etuvchi ijodiy jarayondir”³.

Barcha san‘atlarda bo‘lgani kabi tarjimada ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklar va muammolar mavjud. Taniqli o‘zbek adibi Asqad Muxtor tili bilan aytganda, “tarjima - sermuammo san‘at”⁴dir. Bir tildan ikkinchisiga o‘girilayotgan matn doirasida turli xil murakkabliklarga uchrashimiz mumkin.

Tarjimashunoslikning lisoniy muammolaridan biri o‘zbek tarjimashunosligida “soxta ekvivalentlar” nomini olgan bo‘lib, tarjimashunoslikda bu tushuncha “yolg‘onchi so‘zlar”, “aldoqchi so‘zlar”, “tarjimonning soxta do‘stlari” deb, ba‘zi manbalarda esa bu til hodisasini ifoda etish uchun boshqa terminlar: “tillararo omonimlar”, “tillararo analogizmlar”, “ohangdosh so‘zlar”, “aldoqchi so‘zlar” va boshqalar⁵ ham yuritiladi. Soxta ekvivalentlar haqida ma‘lumot berishdan avval “ekvivalent” atamasiga to‘xtalib o‘tsak. Tarjimashunoslikda ekvivalentlar(Ekvivalent lot. *Aequivalens* – *teng baholi, teng qiymatli* degan ma‘noni

¹ Саломов Ф. Таржима ташвишлари. Т.: Ф.Фуллом, 1983. – Б. 187. (192)

² Ochilov E. Tarjima nazariyasi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent, 2014. – Б. 23

³ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, Б. 40–41.

⁴ Мухтор А. Мураккаб санъат // Таржима санъати (мақолалар тўплами). 5-kitob. – Т.: Ф.Фуллом, 1980. – Б. 20

⁵ Berdak Yusuf. Önsöz // Türkcha-o‘zbekcha “aldoqchi” so‘zlar lug‘ati. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009. – Б. 5.

anglatadi. Asliyat va tarjima matnidagi lisoniy birliklarning o‘zaro to‘la yoki qisman mos kelishi⁶) ikki xil ma’noda tadqiq etiladi: tor va keng. Tor ma’nodagi ekvivalentlik faqat leksemalar orasida o‘rganilishini anglatadi, keng ma’noda u butun bir gap yoki matn doirasidagi tadqiqini bildiradi.

Soxta ekvivalentlik tor ma’nodagi ekvivalentlik bilan bog‘liq. Chunki soxta ekvivalentlar ham ma’lum bir kontekst tarkibida qo‘llanilgan leksemalar doirasida tadqiq etiladi. “Shaklan o‘xshagani bilan ma’nolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan so‘zlar “soxta ekvivalentlar” deb qabul qilingan”⁷.

“Asl nusxa va tarjima o‘rtasidagi asosiy tafovutlar, avvalo, ikki til o‘rtasidagi farqlarda namoyon bo‘ladi. Ba’zi so‘zlar bir tilda boshqa ma’noda, ikkinchi tilda boshqa ma’noda kelishi mumkin. Bir tilda ijobiy mazmunda qo‘llanadigan so‘z boshqa tilda salbiy ma’no bildirishi mumkin, deb bu tafovutlarni ming yil burun Abu Rayhon Beruniy ham ko‘rsatib ketgan edi. Chunonchi, tarjimashunos Zuhridin Isomiddinovning yozishicha, *jo‘ra* so‘zi o‘zbeklarda erkaklarga nisbatan qo‘llansa, turkmanlarda u *dugona* ma’nosida keladi”⁸.

Bu xususda tadqiqot olib borgan taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorovning turli tillar doirasidagi faqat ayrim so‘zlarninggina fonetik jihatdan o‘xshashligini soxta ekvivalent deb qabul qilinadi – degan fikriga qo‘shilmagan G‘.Salomov bu terminni tuzilishi jihatidan bir-biriga o‘xshash, ammo ma’nosi jihatidan bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan, ba’zida bir-biriga zid bo‘lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo‘llaydi⁹.

Ammo, shuni ham unutmaslik kerakki, nafaqat frazeologik birliklar, balki leksik birliklar ham soxta ekvivalent bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, badiiy tarjimada so‘z tanlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, bu esa soxta ekvivalentlar muammosi bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki har bir so‘z tovush va ma’no nuqtayi nazaridan o‘z qimmatiga ega. Faqat bir xil so‘z ikki tilda uchraganda, ba’zan o‘zgarishsiz qolishi bilan bir paytda ma’no jihatidan ham farqlilik kasb etishi mumkin¹⁰.

Rus olimi V.V.Okulenkoning soxta ekvivalentlarga doir ilmiy ishlarini tadqiq etgan tarjimashunos E.Ochilov olim bu tushunchani “tillararo omonimlar” hamda “tillararo paronimlar”ga bo‘lib o‘rganganini, tillararo omonimlarga “shaklan o‘xshash ammo ma’nolari har xil so‘zlar”, tillararo paronimlarga esa “so‘zlarning talaffuzidagi tasodifiy o‘xshashlik”ni kiritganini ta’kidlab o‘tgan¹¹.

Tarjimashunos Z.Isomiddinov ular qatoriga yana “tusmol ekvivalentlar” degan tushunchani ham qo‘shadi. Olimning yozishicha, yaqin turkiy tillardan “tarjima asarlari matnidagi xato va nuqsonlarning o‘ndan to‘qqiz qismini “soxta ekvivalentlar”ga o‘xshagan, aslida esa – agar shunday atash mumkin bo‘lsa – “tusmol ekvivalentlar” tashkil qiladi¹². E.Ochilov bu tasnifni ma’qullab, Maxtumquli she’rlari tarjimasi tahliliga bag‘ishlangan maqolasida M.Ahmad tarjimasidan bir misol ham keltirib o‘tgan¹³. Bizningcha, soxta ekvivalentlar va tusmol ekvivalentlar kabi turlarga ajratish unchalik o‘rinli emas. Chunki biz V.V.Okulenkoning soxta ekvivalentlarni “tillararo omonimlar” hamda “tillararo paronimlar”ga bo‘lib o‘rganganini o‘rinli deb hisoblaymiz. V.V.Okulenko tillararo paronimlarga “so‘zlarning talaffuzidagi tasodifiy o‘xshashlik”ni kiritganini ta’kidlab o‘tgan edik. Tillararo paronimlar ham tusmol ekvivalentlar ham talaffuzdagi tasodifiy o‘xshashlikka asoslanar ekan, ularni alohida tur sifatida o‘rganish tadqiqotchiga qiyinchilik tug‘diradi, fikrimizcha. Tusmol ekvivalentlarga misol sifatida Z.Isomiddinov qirg‘izchadagi *berk* (1. “o‘ta pishiq”, “mustahkam”) so‘zi o‘zbek tiliga *berk* (“yopiq”) tarzida, turkmancha *xovsala* (“qo‘rquv”) o‘zbek tiliga *xafsala*, turkmancha *gorumli* (“boodob”) so‘zi *ko‘rkam* tarzida tusmollab qilingan tarjimalar uchrab turishini aytadi¹⁴. Ammo e’tibor bilan qaralsa ushbu so‘zlarning tusmollab tarjima qilinishiga ham talaffuzdagi tasodifiy o‘xshashlik sabab bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar misolida biz soxta ekvivalentlarni, asosan, qardosh tillar doirasidagi yaqin tillar misolida tahlil qilinganini ko‘ramiz. Ammo arab va o‘zbek tillari o‘zaro oiladosh bo‘lmasa ham leksik umumiyliги ko‘p bo‘lgan, yaqin tillar doirasiga kiradi (umumiy tilshunoslikdagi va tarjimashunoslikdagi yaqin

⁶ Sodiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko‘ptilli lug‘at-ma’lumotnomasi. – Namangan, 2017. – B. 24

⁷ Саломов Г. Тил ва таржима – Т.: Фан, 1966 – Б. 277

⁸ Ochilov E. Tarjima nazariyasi (O‘quv qo‘llanma). – Т.: 2014 B. 24

⁹ Ochilov E. Tarjima nazariyasi (O‘quv qo‘llanma). – Т.: 2014. B. 51

¹⁰ Хамидов Х. Дунёнинг ишлари турк тилида // Таржима масалалари (илмий мақолалар тўплами.) 2-қисм. – Тошкент, 2014. Б. 92

¹¹ Очилов Э. Махтумқули асарларининг ўзбекча таржималари. // Ўзбек тили ва адабиёти. Т., 2008. № 5. – Б. 15

¹² Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс // Таржима санъати (мақолалар тўплами). 5-kitob. Т.: F. Фулом, 1980. Б. 160

¹³ Сапаева Ф. Махтумқули шеърлари ўзбекча таржималарининг киёсий таҳлили. (PhD) Диссертация. – Т., 2018. – Б. 63

¹⁴ Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс // Таржима санъати (мақолалар тўплами). 5-kitob. Т.: F. Фулом, 1980. Б. 162

tillar atamasi o‘zaro farqlanadi¹⁵). Chunki o‘zbek tiliga arab tilidan ko‘plab leksemalar o‘zlashgan. Natijada arab-o‘zbek tillari doirasida ham bir qancha soxta ekvivalentlar paydo bo‘ldi. Masalan, مكتب – *maktabun* so‘zi arab tilida yozuv stoli, parta degan ma’nolarni anglatadi, o‘zbek tilida “o‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o‘rgatib, uni ma’lumotli qiluvchi ta’lim-tarbiya muassasasi¹⁶” degan ma’noni anglatadi.

Yuqorida *tusmol* ekvivalent sifatida keltirilgan misolga o‘xshash namunani arab tilida keltirsak, bizningcha, yanada fikrimiz oydinlashadi. Bir nechta misol keltirishimiz mumkin. Birinchisi, خاتون - “*xotun*” so‘zi ham o‘zbekcha “*xotin*” so‘ziga talaffuzda o‘xshasa ham mazmunan farq qiladi. Bu so‘z o‘zbeklarda ikki xil ma’noda qo‘llanadi: 1. *Xotin* – jinsiy jihatdan erkak toifasiga zid, farzand ko‘rish qobiliyatiga ega odam, ayol (biol. term.). 2. *Xotin* – biror erkak nikohidagi ayol¹⁷. Arab tilida esa, *xonim* yoki *aslzoda xonim*¹⁸ degan ma’noda qo‘llaniladi. Xususan, Jo‘rji Zaydonning “Farg‘ona kelini” asarida:

علي أنه لم يكن في فرغانة أحد من الرجال أو النساء لا يعرف صاحب هذه المركبة، إذا ليس هناك مثلها، وهي مركبة مرزبان المدينة، أهداها إليه بعض أهل امرأته في بلاد القوقاز. وأهل تلك البلاد يستخدمون هذه المركبات لحمل الخواتين في خروجهن أو أسفارهن، وفي المركبة كل ما يحتاج إليه الخاتون من الأدوات حتي الطعام والشراب.

Tarjimasi:

...u arava kimniki ekanini Farg‘onada yashovchi har bir kishi biladi. U hokining aravasi bo‘lib, shaharda undan bo‘lak boshqa hech kimda bunday arava yo‘q edi.

Bu aravani hokimga kavkazlik cherkas xotinining qarindoshi tuhfa qilgandi. Hokimning o‘zi esa forslardan edi. Kavkazda bekalarining sayohatga yoki shaharga chiqqan vaqtda tushib yurishi uchun shunaqa maxsus arava tayyorlanardi. Unda bekalar uchun safarda kerak bo‘ladigan hamma anjom – hatto oziq-ovqatlarga hozirlab qo‘yilgandi.

Ko‘rinib turibdiki, matnda tarjimon “xotun” so‘zini “beka” tarzida tarjima qilgan. Bu ma’lum ma’noda o‘zini oqlagan, chunki matnni mutolaa qilgan insonning tasavvurida “bekalar”ning oddiy ayol emas, balki aslzoda yoki yuqori martabali ayol ekanligi anglashiladi. Yana bir qiziqarli tomoni shundaki, *xotun* so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashmagan. Fikrimizning dalili sifatida Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati¹⁹” birinchi qismida bu so‘z sof turkiy so‘zlar qatorida berilgani, shuningdek, “Devoni lug‘oti turk” asarida ham bu so‘z qo‘llanilganini keltirishimiz mumkin²⁰. Tillarning o‘zaro aloqasi natijasida, ehtimol, bu so‘z arab tiliga o‘zlashgan bo‘lishi va dastlabki ma’nosi arab tilida saqlanib, turkiy tillarda ma’nosi kengayib borgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarjimashunoslikning yanada rivojlanishi, tarjima asarlar sifatining ortishi uchun bu kabi muammolar atroflicha tadqiq etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Саломов Ф. Таржима ташвишлари. Т.: Ф.Фулом, 1983. – Б. 187. (192)
2. Ochilov E. Tarjima nazariyasi (o‘quv qo‘llanma) Toshkent, 2014. – B. 23
3. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, Б. 40–41.
4. Мухтор А. Мураккаб санъат // Таржима санъати (мақолалар тўплами). 5-kitob. – Т.: Ф. Фулом, 1980. – Б. 20
5. Berdak Yusuf. Önsöz // Turkcha-o‘zbekcha “aldoqchi” so‘zlar lug‘ati. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2009. – B. 5.
6. Sodiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko‘ptilli lug‘at-ma’lumotnomasi. – Namangan, 2017. – B. 24
7. Саломов Ф. Тил ва таржима – Т.: Фан, 1966 – Б. 277
8. Ҳамидов Х. Дунёнинг ишлари турк тилида // Таржима масалалари (илмий мақолалар тўплами.) 2-қисм. – Тошкент, 2014. Б. 92

¹⁵ Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс // Таржима санъати (мақолалар тўплами). 5-kitob. – Т.: Ф. Фулом, 1980. – Б. 165

¹⁶ ЎТИЛ, 2-жилд. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – Б. 532

¹⁷ ЎТИЛ, 4-жилд. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – Б. 415

¹⁸ Ал-Қомус 1-жилд. – Т.: Ф.Фулом, 2017. – Б. 727

¹⁹ Qarang: Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1- қисм – Т.: Университет, 2000. – Б. 402

²⁰ Koshg‘ariy M. DLT 1-жилд – Т., 1960 – Б. 388

9. Очилов Э. Махтумкули асарларининг ўзбекча таржималари. // Ўзбек тили ва адабиёти. Т., 2008. № 5. – Б. 15
10. Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс // Таржима санъати (мақолалар тўплами). 5-kitob. Т.: *F. Фулом*, 1980. Б. 160
11. Сапаева Ф. Махтумкули шеърлари ўзбекча таржималарининг қиёсий таҳлили. (PhD) Диссертация. – Т., 2018. – Б. 63
12. ЎТИЛ, 2 – 4-жилд. – Т.: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – Б. 532
13. Ал-Қомус 1-жилд. – Т.: *F.Фулом*, 2017. – Б. 727
14. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1- қисм – Т.: Университет, 2000. – Б. 402
15. Koshg‘ariy M. DLT 1-жилд – Т., 1960 – Б. 388